Ismatullayeva Sevinch (Qarshi davlat universiteti talabasi; E-mail:sismatullayeva152@gmail.com)

CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA MILLIY UYG‘ONISH KONSEPSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada milliy uyg‘onish davri jadid adabiyoti taraqqiyotida romanchilik janrining shakllanishi va taraqqiy etish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Cho‘lpon ijodida roman janrining badiiy-estetik xususiyatlari, uning obrazlar tizimi orqali ifodalangan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar hamda milliy mafkura masalalari atroflicha yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *romanchilik, dialogiya, feodal tuzum, mustamlakachilik, konflekt, ma’rifat, marksizm.*

Исматуллаева Севинч (студентка Каршинского государственного университета; E-mail: sismatullayeva152@gmail.com)

КОНЦЕПЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОБУЖДЕНИЯ В РОМАНЕ ЧУЛПОНА «НОЧЬ И ДЕНЬ»

Аннотация. *В данной статье представлен научно-теоретический анализ формирования и развития жанра романа в истории современной литературы в период национального возрождения. В частности, творчество Чулпона всесторонне охватывает художественно-эстетические особенности жанра романа, социально-политические идеи, выраженные через его систему образов, и вопросы национальной идеологии.*

Ключевые слова: *роман, диалоги, феодальная система, колониализм, конфликт, просвещение, марксизм.*

Ismatullayeva Sevinch (Student at Qarshi State University; E-mail: sismatullayeva152@gmail.com)

THE CONCEPT OF NATIONAL AWAKENING IN CHO‘LPON’S NOVEL “NIGHT AND DAY”

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the formation and development of the novel genre in the development of modern literature during the period of national revival. In particular, Chulpon’s work comprehensively covers the artistic and aesthetic characteristics of the novel genre, the socio-political ideas expressed through its system of images, and issues of national ideology.*

Keywords: *Novel, dialogy, feudal system, colonialism, conflict, enlightenment, marxism.*

Kirish (Introduction). XX asrning 30-yillariga kelib, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida badiiy bezakdan xoli, real hayot voqealarini tasvirlaydigan, shuningdek xalq nutqining ohangini aks ettiradigan yangi janrlar shakllana boshladi. Shu jumladan, roman janri ham rivoj topdi. Jadid adabiyotida ushbu janrga ehtiyoj ortib, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon kabi yozuvchilar “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” hamda “Kecha va kunduz” asarlari orqali adabiyotda yangi yo‘nalishlar ochishga muvaffaq bo‘ldilar. Ayniqsa, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani bu janrning imkoniyatlarini kengroq namoyon etdi. Dialoglar orqali tuzilgan ushbu roman feodal tuzum sharoitida o‘z kuchi va jasoratini topa olmagan millatning achinarli ahvolini ochib beradi. “Kecha”ning dastlabki bo‘limlari 1935-yilda “Sovet adabiyoti” jurnalida bosma shaklda chiqa boshladi, 1936-yilga kelib esa roman to‘liq kitob sifatida nashr qilindi. Romanning ikkinchi qismi “Kunduz” nomi bilan yozilgan bo‘lsa-da, uning yakuniy holati haqida ilmiy manbalar ma’lumot bermaydi. Ma’lumki, Cho‘lpon hibsga olinishi vaqtida uning qo‘lyozmalari orasida “hali tugallanmagan roman” mavjudligi aniqlangan, biroq uning taqdiri bugungacha noma’lumligicha qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Cho‘lpon o‘zbek adabiyoti milliy uyg‘onish harakatining vakili sifatida tanilgan va uning ijodida milliy ruh, milliy o‘zlik va taraqqiyot masalalari markaziy o‘rinni egallaydi. D.Quronovning 2022-yilda nashr etilgan “Cho‘lpon” kitobi shoirning hayoti va ijodini har tomonlama yoritib beradi. Ushbu manbada yozuvchining shaxsiyati, xalq o‘rtasidagi zamonaviy o‘zgarishlarga munosabati batafsil tahlil qilingan. Kitobda Cho‘lponning nasriy va she’riy merosi, xususan, milliy uyg‘onish jarayoniga qo‘shgan hissasi ochib berilgan [2]. D.Quronovning “Cho‘lpon nasriy poetikasi” kitobi esa Cho‘lponning nasriy ijodiga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu kitobda Cho‘lponning nasriy poetikasi, badiiy uslubi, shuningdek, uning qahramonlari orqali milliy o‘zlik va qadriyatlarning ifodalanishi chuqur tahlil qilinadi. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, Cho‘lpon milliy uyg‘onish g‘oyalarini roman qahramonlari orqali o‘quvchiga yetkazadi. Masalan, “Kecha va kunduz” romanida Cho‘lpon jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, qadriyatlar inqirozini ochib beradi [3]. Shuningdek, B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev va S.Ahmedovning “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” nomli kitobida milliy uyg‘onish davrida o‘zbek adabiyotida paydo bo‘lgan jarayonlar va muhim tendensiyalar tahlil qilinadi. Ushbu manba “Kecha va kunduz” romanidagi milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilmiy tushuntirishga imkon beradi [4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida milliy uyg‘onish konsepsiyasini yoritib berishga qaratilgan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning chog‘ishtirma tahlil, semantik tahlil, analiz, sintez kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida millatning g‘aflatdagi qorong‘u va yorug‘ kunlarini jonli tasvirlashga harakat qilgan. “Muallif romanning bosh g‘oyasida, asosan, maishiy turmush manzaralari, an’anaviy kundoshlik mojarolari va yangi davrga xos bo‘lgan xususiyatlar, chunonchi, “kapitalistik munosabatlar” va “burjua axloqi” deb atalgan islomiy turmush tarzidan uzoq fe’l-odatlarni tasvirlaydi” [4;453-b.]. Shu bilan birga, so‘z erkinligi cheklangan davr sharoitida u asar orqali yosh avlodni mustamlakachilik ostida sodir bo‘layotgan voqealarning mohiyatini anglashga va milliy ongini yo‘qotib, manqurtga aylanishdan saqlanishga chaqiradi. Garchi, ijtimoiy sharoit roman yaratishga to‘liq imkon bermagan bo‘lsa-da, Cho‘lpon jadidchilik g‘oyalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki asardagi obrazlar orqali ifodalash yo‘lini tanlagan. Shu maqsadda u Sharafiddin Xo‘jayev kabi ziyoli va ma’rifatparvar obrazni yaratadi. Muallif poyezddagi tasodifiy uchrashuvlar orqali Sharafiddin Xo‘jayev, Miryoqub va Maryamning kundaliklarini bog‘lab, o‘zini chetga olib, jadidlar haqidagi mulohazalarni obyektiv tarzda ochib beradi. Sharafiddin Xo‘jayevning “Ulardan, ya’ni, noib to‘ra kabi mustamlakachilardan bizga do‘st yo‘q. Bizning do‘stimiz millat! Ular – millat dushmanlari!” [3;123-b.] degan so‘zlari orqali Cho‘lpon zamon boshqaruvchilarining faoliyatini tanqid qiladi.

Adabiyotshunoslar orasida Sharafiddin Xo‘jayev obrazining tarixiy shaxsga asoslanganligi haqida turli qarashlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar uni Buxoro jadidchilik harakatining faol vakili, “Yosh buxoroliklar” siyosiy tashkilotining yetakchilaridan biri bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev bilan bog‘lashadi. Shu nuqtayi nazardan, obrazning tarixiy asosga ega ekanligi va real ijtimoiy-ma’rifiy faoliyat olib borgan shaxs sifatida yaratilgani ko‘rinadi. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, 1931-yilda Fayzulla Xo‘jayevning tashabbusi bilan Cho‘lponning Moskvaga yuborilishi adibning hayotini ma’lum muddat saqlab qolgan, bu esa ikki buyuk arbob o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Cho‘lpon asarda ijtimoiy ziddiyatlarni badiiy vositalar orqali ochib berishda Miryoqub obrazidan faol foydalanadi. Ko‘plab manbalarda “Kecha” romani bosh qahramoni sifatida aynan Miryoqubning roli ajralib turadi. Muallif ushbu obraz orqali XX asr boshlarida shakllanib borayotgan iqtisodiy munosabatlar kontekstida ishbilarmon kishilarning o‘z-o‘zini anglash jarayonini yoritadi.

Miryoqub “faqir inson” niqobi ostida yashirinib ishlaydigan, biroq katta savdo-sotiq ishlarini amalga oshiradigan, qo‘li uzun shaxs sifatida tasvirlanadi. U davlat boshqaruvida faoliyat yuritgan yuqori amaldorlarning nozik jihatlarini yaxshi biladi va o‘z maqsadlariga erishish uchun hukmdorlar yordamidan samarali foydalanadi. Masalan, noib to‘raning eski qo‘lyozmalarga nisbatan qiziqishi Miryoqub bilan foydaga asoslangan “do‘stlik”ni shakllantiradi va u ozgina sovg‘a yoki salom evaziga katta manfaatlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, Akbaralini ham o‘z ta’siri ostida tutib, 10–15 yillik ishonchli aloqalar orqali uni mingboshi lavozimiga ko‘taradi va o‘z maqsadlariga erishish uchun Akbaralining mavqe va imkoniyatlaridan samarali foydalanadi.

Cho‘lpon ushbu tasvir orqali o‘tmishdagi ijtimoiy tafsilotlarni ochib beradi. Chunki ma’rifatparvarlik harakatlarida jadidlar ham amaldorlar soyasi ostida faoliyat yuritishga majbur bo‘lgan. Miryoqub obrazi muallif tomonidan epchil, uddaburon va ishbilarmon shaxs sifatida xarakterlanadi. Masalan, “Miryoqub akaning yurushi ko‘p! U aksariyat piyoda yuradi. ‘Assalomu alaykum’ deb dona-dona salom bersangiz, shoshqaloqligidan bo‘lsa kerak, “vass...” debgina qo‘yadi” [1;56-b.], degan so‘zlar uning serg‘ayrat va jonkuyar shaxs ekanini ko‘rsatadi. Miryoqub oz sarmoya evaziga maksimal foyda olishga intilib, qishloqda ikkita baqqollik, bitta qassoblik do‘koni va guzarda ikki samovar faoliyatini yo‘lga qo‘yadi. Shu orqali u oddiy savdogardan yirik sarmoyadorga aylanadi va o‘z ijtimoiy mavqeini mustahkamlaydi.

Miryoqubda Maryamga nisbatan paydo bo‘lgan muhabbat uning ruhiy ziddiyatlarini kuchaytiradi. Natijada qahramon ongida tinchlik bermaydigan “tergovchi” va “oqlovchi” ichki kurashi boshlanadi. Shu paytgacha atrofdagilar bilan o‘zini solishtirib, “men ulardan yaxshiroqman-ku” deb o‘zini ovutib yurgan Miryoqub hayotining pastkashlikdan boshqa narsaga to‘la yemasligini, hatto Akbarali mingboshidan ham tubanroq ekanini vijdoni oldida tan oladi. Bu achchiq haqiqatni anglagach, u o‘tmish bilan yashab bo‘lmasligini tushunadi va yangi hayot qurish umidida Qrimga otlanadi. Hayotini qayta boshlashni, qayerdan boshlashni bilmay izlanayotgan Miryoqub poyezdda jadid savdogari bilan tanishadi. Shu tanishuv orqali ilgari e’tibor bermagan, anglamagan savollariga javob topa boshlaydi. Ilg‘or fikrli ziyolining yangicha qarashlaridan xulosa qilgan Miryoqub shunday deydi: “Ilgari tinchgina pul topishni bilardim. Ota-bobolarimiz yurgan yo‘lidan yuraverardim. Endi allakim chiqib: “Ota-bobolaringni yurgan yo‘li egri, to‘g‘ri yo‘l bu yoqda”, deydi. Odam ishonadigan qilib aytadi. Shu ikki yo‘ldan birini tanlab olishim kerak. Ushbu so‘z-

lar uning zamonaviy hodisalarga faol munosabatda bo‘lib, ijtimoiy shaxs sifatida shakllanish jarayonida ekanligini ko‘rsatadi. Roman oxirida Miryoqub ma’rifatparvarlik harakati yo‘nalishidagi inson sifatida tasvirlanadi. Romanning ikkinchi qismi mavjud emasligi sababli uning keyingi faoliyati qorong‘uligicha qolgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Cho‘lpon romanda shaxsiy fojiani tasvirlash orqali butun jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini yoritadi. Adib millatning bilib yoki bilmay qabul qilgan marksizm g‘oyalarini tanqidga olib, bu masalani romanning asosiy mavzusiga aylantiradi. Sharafiddin Xo‘jayev va Miryoqub obrazlari orqali Cho‘lpon xalqning og‘ir turmushi, islohotlarga bo‘lgan ehtiyoji va yangi davrga intilish harakatlarini ochib beradi.

Iste’dodli adibning ushbu romani o‘zbek milliy romanchiligi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi. Afsuski, roman nashridan bir yil o‘tib, ta’qiqqa uchradi va ikkinchi qismi butunlay yo‘qoldi. Shunga qaramay, “Kecha va kunduz” romani tarixiy hujjat darajasiga ko‘tarilib, bugungi kunda yosh adiblar uchun tajriba maktabiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Abdulhamid Ch. Kecha va kunduz. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2000, 287-bet.

(2). Quronov D. Cho‘lpon. Toshkent, “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2022, 160-bet.

(3). Quronov D. Cho‘lpon nasriy poetikasi. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2004, 288-bet.

(4). Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004, 457-bet.

Samandarova Muhayyo Sultanovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi;
e-mail: muhayyosultanovna277@gmail.com)

“CHINOR” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Asqad Muxtor asarlarida ayol obrazining badiiy-estetik talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining nasriy va dramatik asarlarida ayol siymosining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, psixologik chuqurligi hamda ijtimoiy funksiyasi ilmiy jihatdan yoritiladi. Ayol obrazining realizm tamoyillari asosida yaratilishi, ichki dramatizm va estetik ideal uyg‘unligida shakllanishi tahlil etiladi. Shuningdek, obraz yaratishda qo‘llanilgan psixologik tasvir, ichki monolog, dialog va badiiy detal kabi vositalarning funksional ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Asqad Muxtor ijodida ayol obrazi o‘zbek nasrining muhim estetik hodisasi ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, badiiy obraz, psixologizm, realizm, estetik ideal, ichki monolog, ijtimoiy muhit, xarakter, o‘zbek nasri.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКИХ ОБРАЗОВ В РОМАНЕ «ЧИНОР»

Аннотация*. В данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация женского образа в произведениях узбекского писателя XX века Аскада Мухтара. В исследовании рассматриваются духовно-нравственный облик, психологическая глубина и социальная функция женских персонажей в прозе и драматургии автора. Особое внимание уделяется принципам реализма, внутреннему драматизму и формированию эстетического идеала в создании образа женщины. Также раскрывается функциональное значение таких художественных средств, как внутренний монолог, диалог, психологическая детализация и портретная характеристика. Результаты исследования показывают, что женский образ в творчестве Аскада Мухтара является важным эстетическим явлением узбекской литературы.*

Ключевые слова: *женский образ, художественный образ, психологизм, реализм, эстетический идеал, внутренний монолог, социальная среда, характер, узбекская проза.*

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF FEMALE CHARACTERS IN THE NOVEL “CHINOR”

Annotation*. This article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of female characters in the works of the prominent Uzbek writer of the twentieth century, Askad Muxtor. The study examines the moral and spiritual image, psychological depth, and social function of female characters in the author's prose and dramatic works. Particular attention is paid to the principles of realism, internal dramatism, and the formation of an aesthetic ideal in portraying women. The functional significance of artistic devices such as internal monologue, dialogue, psychological detail, and portrait characterization is also explored. The*